O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-
SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

| | | |
|---|---|---|
| Ro'yxatga olindi:<br>№ БД-60220500<br>2024 yil "10" 03 | | "TASDIQLAYMAN"<br>SamDU rektori:<br>_____ R.J.Xalmuradov<br>2024 yil "__" _____ |

# FALSAFIY ANTROPOLOGIYA
## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 220 000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari) |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60220500 – Falsafa |

**Samarqand-2024**

| Fan/modul kodi<br>FA14-722 | O‘quv yili<br>2025-2026<br>2026-2027 | Semestrlar<br>4-5<br>6-7 | ECTS – Kreditlar<br>22 |
|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta’lim tili<br>O’zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4 |

| | Fan nomi | Auditoria mashg’ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami: |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Falsafiy antropologiya | 320 | 340 | 660 |

| | |
|---|---|
| | **II Fanning maqsadi (FM)** |
| 2 | Fanni o’qitishning maqsadi – talabalarga falsafiy antropologiya fanining paydo bo’lish shakllanishi va uning turli yo’nalishlari haqida izoh berish, falsafiy bilimlarini mukammallashtirishdir. |
| 3 | Fanni o’qitishning vazifalari – tabiiy va ijtimoiy fanlar orasidagi o’zaro aloqadorlikni taxlil qilish; antropologiya inson haqidagi fanlar muvofiqlashtiruvchi fan ekanligini ilmiy asoslash; jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur va shaxsiy-tahliliy tanqid nuqtai nazaridan yondashish, o’z-o’zini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tuyg’ularini hosil qilish; yoshlarda jamiyatni demokratlashtirish va modernizasiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash. “Falsafiy antropologiya” fani ma’ruza, seminar mashg’ulotlar shaklida olib boriladi. |

| | |
|---|---|
| | **Fan mazmuni** |
| | **II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)** |
| | **II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:** |
| | **Mashg’ulotlar shakli: ma’ruza (M32)** |
| M1 | **I.Bo‘lim. Falsafiy antropologiya fanini vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari.**<br>**Falsafiy antropologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.**<br>Inson falsafaning tadqiqot predmeti sifatida, uning dolzarbligi va o‘ziga xos xususiyatlari. Falsafadan bahs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldorligi. Inson falsafasining ob’ekti-inson haqida olib borilgan tadqiqotlar, falsafiy fikrlar taraqqiyoti. Insonning tub mohiyatini tushunish, uning imkoniyat va qobiliyatini kengaytirish maqsadida olib borilayotgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar. Hozirgi globallashuv sharoitida inson ma’naviyati muammosining dolzarbligi. Insonning ma’naviy olamini tubdan o‘zgarishtirishga qodir kuchlarning mavjudligi. Insonshunoslik fanlari tizimida inson muammosi. Ruhiyatshunoslik, pedagogika, antropologiya kabi insonshunoslik fanlarida bilish ob’ekti, predmeti, tadqiqot vositalari va usullarida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lib turishi va buning inson muammosiga yangicha yondashish imkoniyatini berishi. Yangilanayotgan O‘zbekiston va inson ma’naviy borlig‘iga yangicha yondashuv. |
| M2 | **Inson haqidagi fikrlar taraqqiyotining davrlarga bo’lish amaliyoti.**<br>“ Inson taraqqiyoti” konsepsiyasining mohiyati va mazm uni, inson huquq- larining tarixiy taraqqiyoti, insonning jamiyat va davlat bilan o‘zaro huquqiy aloqadorligi, inson taraqqiyotida xalqaro tashkilotlaring o‘rni, “ Inson huquqlari Umum jahon deklaratsiyasi” va uning tarixiy ahamiyati, O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari, inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro Faktlar, demografik vaziyat va uni inson taraqqiyotidagi o‘rni, global izatsiya va inson taraqqiyoti, inson taraqqiyotida ta’lim , madaniyat, din va axloq masalasi, sog‘liqni saqlash inson taraqqiyotining omili, atrof muhit va inson |



| | |
|---|---|
| | taraqqiyoti haqida davrlarga bo‘lish amaliyoti. |
| M3 | **Qadimgi Hind va Xitoy falsafasida inson tavsifi.**<br>Qadimgi Xitoy falsafasida yana turli xil yo’nalish va oqimlar mavjud bo’lgan. Ularda falsafiy tafakkur qadriyatlarini ishlab chiqishga uringan mashhur kishilar, o’z davrining ko’zga ko’ringan donishmandlari tabiat, jamiyat va inson hayotiga taalluqli bo’lgan ko’pgina muammolarning real yechimini izlaganlar. Bunday muammolarni o’z ijtimoiy ideallaridan kelib chiqqan holda hal etishga uringanlar. Tabiiyki muammolarning yechimi bir xil emas, chunki olam cheksiz va benihoyadir. Ularni chegaralangan nazariy tamoyillar tizimi vositasida qamrab olishi. Falsafiy maktablar, yo’nalishlarning turli-tumanligi. |
| M4 | **Qadimgi Eron va Turon falsafasida inson tasviri.**<br>Cheksiz koinotda suzib yurgan moviy sayyoramiz ulkan Gallaktikaga nisbatan go‘yo chang zarrasidek kichik o‘lchamga ega. Boz ustiga, agar u Quyoshga jindek yaqinlashsa - kuyib ketishi, arzimas masofaga uzoqlashsa muzlab qolishi tayin. Bir tomonda taftli-haroratli Quyosh, bir tomon - cheksiz zulmat, sovuq Koinot. Yer shu oraliqda o‘z yo‘nalishidan og‘ishmay yo‘l bosadi. Mana shu Sayyora Yaratguvchi tomonidan butun insoniyatga makon qilib berilgan. Insoniyat shu davrga qadar minglab yillarga teng bo‘lgan taraqqiyot davrini bosib o‘tdi. Undan oldin nima bo‘lgani bizga qorong‘u. Shu bois ham biz bir necha ming yillik tarix haqida ma’lumotga egamiz, xolos.<br>“Avesto”da ulug'langan axloqiy g'oyalarda dunyoga kelib yashayotgan har bir insonning faqatgina o'ziga tegishli vazi fasi bo'ladi. Masalan, shovqinli davraning bir chetida o'tirib, bor-yo'qligi bilinmaydigan, davradoshlarining fikricha, “qo'li dan hech narsa kelmaydigan” kimsaning ham Yaratuvchi oldida vazifasi, o'rni va shubxasiz, qadr qimmati bo'ladi. Bunda Yarat ganning ulug' hikmati mujassam.. |
| M5 | **Elenizm davrida antropologik qarashlari.**<br>Antik falsafada jamiyat va inson to’g’risidagi fikrlar taraqqiyoti. Qadimgi Hindiston ilmiy-falsafiy ta’limotlarida inson muammosini kiritilishi. Xitoy falsafasida inson muammosini o’rganilishi. Qadimgi Turon jamiyatida inson oliy qadriyat sifatida o’rganilishi. Qadimgi Yunon faylasuflarining jamiyat va inson to’g’risidagi qarashlari. |
| M6 | **Xristian falsafasida inson tavsifi.**<br>O’rta asr mutafakkirlarining inson va Jamiyat to’g’risidagi qarashlari. Xristian falsafasida inson va uning jamiyatda tutgan o’rni. Musulmon mutafakkirlarini asarlarida insonni ulug’lanishi. Sharq falsafasida ison va uning ijtimoiy mohiyati muammosi. Tasavvuf falsafasi va insonning ruhiy-ma’naviy kamoloti. Tasavvuf falsafasida inson barkamolligining bosqichlari. |
| M7 | **Renessans davri xristian falsafasining antropotsentrik xususiyati.**<br>Uyg‘onish davri Yevropada XIV asrning ikkinchi yarmida to XVII asrning boshlarigacha bo’lgan davrlari. asta-sekinlik bilan eski ishlab chiqarish munosabatlarining o’rniga yangi ishlab chiqarish munosabatlari vujudga kela boshlagan edi. Bu esa insoniyat tarixida shu davrgacha yuz bergan eng buyuk ilg’or to’ntarishlardan biri edi. Haqiqatan ham bu davrda hayotning hamma tarmog’ida muhim ilg’or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o’zgarishlar yuz berayotgan edi. Sanoat ishlab chiqarish usulining dastlabki kurtaklari O‘rta yer dengizi |

| | |
|---|---|
| | atrofidagi ayrim shaharlarda XIV va XV asrlardayoq yuzaga kelgan. Bu davrda, ayniqsa, Italiya eng taraqqiy etgan davlat bo'lgan. Bu yerda boshqa davlatlarga nisbatan avvalroq savdo-sotiq, hunarmandchilik tez sur'atlar bilan rivojlangan |
| M8 | **Gumanistik g'oyalaming shakllanishi.**<br><br>XV asrning o'rtalaridan boshlab. G'arbiy Yevropaning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotida Uyg'onish davri (frantsuz tilida "Uyg'onish") deb ataladigan yangi davrning boshlanishini ko'rsatuvchi qator muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda. Tor ma'noda "Uyg'onish" atamasi odatda qadimgi madaniyatning tiklanishi, go'zallik, turmush tarzi, tafakkur va his-tuyg'ularning qadimiy idealining tirilishi sifatida tushuniladi. Biroq, Uyg'onish davrini faqat antik davr ideallarining tirilishiga qisqartirish noto'g'ri bo'lar edi. Bu davrning hal qiluvchi xususiyati madaniyatning misli ko'rilmagan gullab-yashnashi, jadal ijodiy yuksalish, ulkan tashabbuslar, izlanishlar va kashfiyotlar edi. Ushbu maqolada, O'rta asrlarda Yevropada gumanistik g'oyalarning shakllanishi va evolyutsiyasi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. |
| M9 | **Olam, odam, Xudo borlig'i va birligi haqidagi tasvvurlaming tubdan o'zgarishi.**<br><br>Renessans davri Yevropa falsafasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — tabiat falsafasining yangi bosqichga ko'tarilganligi bilan ifodalanadi. Tabiat falsafasining yangi bosqichga ko'tarilishi — Renessans madaniyati va gum anistik falsafasi rivojining m ah suli, uning hosilasi edi. Ana shunday burilish davrida inson o'zi uchun yangi istiqbollar ochdi, xususan, o'zining olam dagi o 'm i, ijodiy faoliyatidagi erkinlikni m ustahkam lashda yangi im koniyat lar vujudga kelganligiga ishonch hosil qila boshladi. O lam ning tabiiy m anzarasini, hatto inson o 'z tabiatini bilishga qodir ekanligiga ishona boshladi. Insonning qadr-qim m atini ulug'lash, unga eng oliy qadriyat deb qarash, erkinlik idealining yanada rivojlanishi uchun yangi m a'naviy m uhit yaratdi. |
| M10 | **Inson manfaatlari va ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini himoyalash yo'llari va vositalarini izlab topish harakatining avj olishi.**<br><br>Renessans davri Yevropa falsafasining inson tomon keskin burilishi, odamlarning ezgulik, yaxshilik haqidagi azaliy orzu umidlarini ushalishi. Inson manfaatlari va ehtiyojlari, insoniy haq-huquqlari. O'sha davrda yashagan va ijod etgan mutafakkirlar inson manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishning, haq-huquqlarini himoya qilishning eng muhim sharti — markazlashgan qudratli davlat bunyod etishdir, degan g'oyani olg'a sura boshladilar.<br>Renessans davri Yevropa faylasuflari, huquqshunoslari har tomonlama ulug'lagan markazlashgan qudratli davlat qurish g'oyasining antropotsentrik xususiyatini ilg'ab olmoq uchun ushbu g'oyaning shakllanish jarayoni haqida tasawurga ega bo'lish darkor. |
| M11 | **Musulmon falsafasida inson tafsiri.**<br><br>Musulmon faylasuflari ham odam va olam orasidagi o'zaro aloqadorlik muammolarini bilishga intildilar. Odam deb ataluvchi mavjudotni kim yaratgan? Odam qanday unsurlardan tashkil topgan? Odamning inson darajasiga ko'tarilishi qanday sodir bo'ladi? Insonning jismi bilan uning ruhiyati, ma'naviyati orasi dagi aloqadorlik mavjudmi? kabi savollarga javob topmoqchi bo'ldilar. Turgan gapki, bunday savollarga javobni, eng avalo, musulmon |



| | |
|---|---|
| | faylasuflari «Qur'oni Karim»dan izladilar. |
| M12 | **Musulmon madaniyati va uning o'ziga xos xususiyatlari.**<br><br>Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda islom dini tarqalgan hududlar va unga e'tiqod qilgan xalqlar madaniyatini yaxlit qilib, bir ibora bilan «musulmon madaniyati» deb ta'riflash urf bo'ldi. Mu sulmon madaniyatining shakllanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr-mulohaza yuritganda quyidagi holatlarga e'tiborni qaratish zarur.<br>Milliy madaniyatlarning diniy madaniyat shakllanishidagi roli. Sintoizm. Buddizm. Konfusiychilik. Milliy fanatizmning shakllanishida busido izdoshlari ongiga o'limdan qo'rqmaslik g'oyasini singdirgan dzen-buddizm. Islom dini asosiy g'oyalarning rivoji, tarixi, falsafasi va san'ati. Islomda shaxsni kamol toptirish andozasi omillari. G'arbda salb yurishlarining kashf qilgan va amalga oshishi, islomda muqaddas urush – jihodni o'ylab topilish va hayotga tatbiq etilishi. |
| M13 | **Sunniylik: mutakallimlik, mu'taziliylik va shialik ta'limotlarida inson borlig'i.**<br><br>O'rta asrlar musulmon falsafasining eng yirik diniy-falsafiy ta'limoti sunniylik VII asrning ikkinchi yarmida Arabistonda vu judga keldi hamda VIII—XII asrlarda arab xalifaligidagi g'oyaviy siyosiy kurashlar jarayonida islom falsafasidagi yirik ta'limot sifatida shakllandi. Ma'lumki, VII—VIII asrlarda arab xalifaligining uzluksiz kengayib borishi, xalifalik tarkibiga zo'rlab kiritilgan mamlakatlar xalqlari turmush tarzining majburan arablashtiri lishi, mahalliy aholi turmush tarzidan islomgacha bo'lgan urf odatlaming zo'rlik bilan yo'qotilishi, o'z navbatida, imperiya hududida yashovchi barcha xalqlaming madaniy-ma'naviy muno sabatlaridagi turli ziddiyatlami ham keskinlashtirib yubordi |
| M14 | **Tasavvuf falsafasi va insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti.**<br><br>O'rta asr musulmon faylasuflarining inson to'g'risidagi qarashlari. Tasavvuf falsafasini rivojlanishida tarixiy davr madaniy ma'naviy hayotida ega bo'lgan so'fiylik ta'limotining ta'siri. So'fiylik yoxud so'fizm inson ruhiy-m a'naviy kamoloti haqidagi turli g'oyaviy-nazariy qarashlar, axloqiy qoidalar va ularni amalga oshirish yo'llari va uslublari xususidagi ta'limotdir.Tasavvuf so'fiylikning g'oyaviy-nazariy asosini tashkil etadi |
| M15 | **Tasavvufda inson barkamolligining bosqichlari.**<br><br>So'fiylik turli qarashlar, g'oyaviy oqimlar, axloqiy qoidalarning yig'indisi. XII— XIII asrlarga kelib, so'fiylik qobig'ida tayfuriya, junaydiya, kubraviya, kassoriya, malomatiya, mavlaviya, sayyoriya, nuriya, qodiriya, sahliya, suhravardiya, ne'matullohiya, bektoshiya, yassaviya, naqshbandiya kabi tariqatlaring vujudga kelganligi. Tariqatlarda so'fiylikning amaliy yo'l-yo'riqlari, qonun-qoidalari, suluklarda so'fiylarga xos hayot kechirish normalari. |
| M16 | **G'azzoliyning antropologik qarashlari.**<br>G'azzoliyning falsafiy qarashlari asosan Islom dinining ta'limotlariga asoslanadi. Islomda iymon kishi xulqini tartibga soluvchi muhim mezon hisoblanadi. G'azzoliyning bilish nazariyasiga doir qarashlarini o'rganish fandagi ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladigan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sharqda G'azzoliyni bilganlari uchun buyuk faylasuf |

| | |
|---|---|
| | Dekartning nazariyasiga o‘xshash gapni aytgan shaxs ham borligini eslab qo‘yadilar. Ba’zi birlari jur’at qilib Dekart va G’azzoliyning shaklarini solishtirib ham qo‘yadilar. Ammo bu boradagi xaqiqatni xech kim bilmaydi. Ushbu xaqiqat ila bu satrlarning kotibi ustoz Muhammad Sa’id Ramazon Butiyning «Shaxsiyotun istavqafatni» nomli kitoblaridan bildi. |
| | **II. Mashg’ulotlar shakli: Ma’ruza (38)** |
| M1 | **Kubraviyada inson ma’naviy qiyofasi.**<br>So'fiylik ta’limotining nazariy asosi bo'lgan tasavuf falsafasining eng muhim yo'nalishlaridan biri kubraviyadir. Kubraviya tasavvuf falsafasining boshqa yo'nalishlaridan nafaqat insonni ruhiy-ma’naviy kamolotga olib boruvchi yangi yo'l, yo'nalish, usul ekanligi bilan, balki inson ruhiy-ma’naviy olamining shakllanishi jarayonini bilishga e’tiborni qaratgani bilan tubdan farq qiladi. Inson faqat ilohiyot sirlarini bilishga intiluvchi, o'zini butunlay unutib qo'ygan mavjudot emas, balki o'zini qayta qurish uchun real ijtimoiy im koniyatlarga ega bo'lgan bunyodkor sifatida talqin qilinadi. Kubraviya tariqati tufayli tasavvuf so'fizmning chinakam nazariy asosi bo'lgan falsafiy dunyoqarashga aylandi, amaliy-axloqiy urf-odatlar, turmush tarzi, xususan, tarkidunyochilik, zohidlik doirasidan chiqib, haqiqiy inson falsafasi tomon burib yuborildi. |
| M2 | **Yassaviyada inson ta’rifi.**<br>X asr o'rtalarida Xurosonda tasavvuf rivojlana boshladi. Poytaxt Marv yirik madaniy-ma’rifiy markazga aylandi. Xuroson tasavvuf maktabining yirik namoyandalari Abdulla Ansoriy (1 0 0 6 — 1089-y.), Ahmad Jom (vafoti 1141-y.) va Yusuf Hamadoniy ( 1 0 4 8 - 1 140-y.)lar edi. Tasavvuf falsafasining asoschilaridan biri Yusuf Hamadoniy Eronning Hamadon shahri yaqinidagi Buzanjirda qishlog'ida tug'ildi. Bag'doddagi mashhur Nizomiya madrasasida tahsil ko'rdi. O'sha davrning atoqli olim laridan biri Abdu Is’hoq Sheroziydan saboq oldi. Fiqh, mantiq, hadis ilm larini qunt bilan egalladi. Isfaxon, Balx, Hirot, Marv, Buxoro va Samarqand shaharlarini kezib, odam lardan hadis to'pladi. |
| M3 | **Naqshbandiyada inson timsoli.**<br>Yusuf Hamadoniyning shogirdlaridan biri Aduxoliq G 'ijduvoniy Abu Bakr asos solgan «zikri xufiya»ni har tomonlama rivojlantirgan. Shuningdek, Husayn Voiz Koshifiyning «Rashohat aynal-hayot» asarida yozilishicha, u tasavvuf falsafasining yirik oqim laridan hisoblangan hojagon (xo'jalar) tariqatiga asos solgan. Shuning uchun ham jahon xo'jalarining sarvari darajasiga ko'tarilgan. Abduxoliq G 'ijduvoniy Sharq falsafiy tafakkuri tarixida munosib o'rin egallaydi. U ning ta ’limoti tasavvuf falsafasining eng muhim oqimlaridan biri hojagon tariqati doirasida shakllangan va rivojlangan. |
| M4 | **XVI-XIX asrning birinchi yarmida musulmon falsafasida barkamol inson g'oyalarining targ'ibot va tashviqot qilinishi .**<br>XVI asrdan e’tiboran, Osiyo va Shimoliy Afrikaning ko'p mamlakatlari madaniy-ma’rifiy hayotida ratsionalizm o'rnini din egallay boshladi. Dunyoviy fan namoyandalari quvg'in qilindi. Natijada, jamiyat turmush tarzida ilmiy-tabiiy fanlarning o'mi va ahamiyati kamayib bordi. Diniy bilimlar, diniy taassubning roli orta boshladi. Oqibatda, islom dinining qoidalari jamiyat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. O'rta asrlar musulmon madaniyatining ko'rki bo'lgan tasavvuf falsafasining odamlar fikrlash tarzidagi o'rnii susayib qoldi. Odamlar dunyoqarashida sunniylikning ta’siri ortib bordi. Bunday holatni o'sha davrda ijod qilgan musulmon faylasuflari Yusuf Qorabog'iy, Sharif Buxoriy, Inoyatulla Buxoriy, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor, Maxtumquli Firog'iy asarlarida yaqqol ko'rish mumkin. |
| M5 | **XVII-XVIII asrlar Yevropa falsafasida ma’rifatparvarlik g'oyalarining ifodalanishi.**<br>Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida XVII asrda ishlab chiqarish jarayonida, |



| | |
|---|---|
| | xususan, mehnat taqsimotida tub sifatiy o‘zgarishlaming sodir bo‘lishi, ishlab chiqarish jarayonini rat sionallashtirish talabining ortib borishi, ishlab chiqarishga ilm fan yutuqlarini tatbiq etish ehtiyojini kuchaytirib yubordi. Bun day ehtiyojning ortib borishi, o‘z navbatida, diniy dunyoqa rashning ta’sirini kundan-kunga kamaytira bordi. Ushbu holat falsafaning hayotdagi mavqeini ham o'zgartirdi. Agar o'rta asr larda falsafa dinshunoslik, Renessans sharoitida san’at va gumani tar bilimlar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, endi u fan yutuqlariga tayana boshladi. XVII—XVIII asrlar Yevropa faylasuflarining inson to‘g‘risidagi qarashlariga, shubhasiz, ush bu tendensiya o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bunday kayfiyatni ilm-fan zudlik bilan rivojlana boshlagan Angliya, Fransiya, Germaniya faylasuflarining inson haqidagi qarashlarida ko‘rishimiz mumkin. |
| M6 | **XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo ma’rifatparvarlarining jamiyat hayotini insonparvarlashtirish borasidagi sa’y-harakatlari.**<br>XVI va XIX asrning birinchi yarmida musulmon falsafasida barkamol inson g’oyalarining tarqibot va tashviqot qilinishi. XVII va XIX asr Ovro’pa falsafasida ma’rifatparvarik g’oyalarining ifodalanishi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O’rta Osiyo ma’rivatparvarlarining jamiyat hayotini insonparvarlashtirish borasidagi sa’y-harakatlari.<br>XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloq, fuqarolar turmush tarzi o‘ta past, madaniy-ma’naviy hayotida islom dini peshvolarining ta’siri kuchli edi. Kishilar dunyoqarashida tasawuf falsafasi an’analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgandi. Bu davrda o‘rta asr musulmon mutafakkirlari asarlarini qayta nashr etish boshlandi. Kalom falsafasi, shariat axloqiga oid klassik adabiyotlar arab-fors tilidan turkiy tillarga taijima qilinib, nashr ettirish, masjid va madrasalarda bedilxonlik, mashrabxonlik kabi turli she’rxonliklar, gurunglar avj oldi1. Odamlarning madaniy merosga, bilimga, ilmga intilishlari kuchaya bordi. Endilikda odamlar inson aql-zakovatining kuchiga, olamni o'zgartirish borasidagi salohiyatiga ko‘proq ishona boshladilar, og'ir musibatli turmush tashvishlaridan, zulm va adolatsizliklardan xoli qiluvchi yagona qudrat bilim, ilm ekanligini tushuna boshladilar. Bunday kayfiyatlar ma’rifatparvarlik harakatida o'z ifodasini topdi. Xullas, O'rta Osiyoda ma’rifatparvarlik harakati kishilaming ilm-fan, taraqqiyot, umuminsoniy qadriyatlarga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy qoloqlikni bartaraf etishga bo'lgan intilishning natijasi edi. |
| M7 | **Klassik falsafaning insonshunoslik an’analarini shakllantirishda va rivojlantirishda nemis faylasuflari Immanuil Kant, Iogann Fixte, Fridrix Shelling, Vilgelm Gegel, Lyudvig Feyerbaxlar ning xizmatlari.**<br>XVIII va XIX asrlarda Yevropada yaratilgan nemis falsafasi chinakam klassik falsafa bo'lib, unda Renessans davridan XIX asrgacha inson fikrlash madaniyatida sodir bo'lgan eng muhim o'zgarishlar o'z ifodasini topgan edi. Butun Yevropa falsafiy tafakkuri taraqqiyotining barcha yutuqlari unda mujassam edi1. Klassik falsafaning eng muhim xususiyati, uning tadqiqot markazida inson intellektual imkoniyatlari, ya’ni inson aqli muammolari turgan. Chunki inson o'zidagi aqliy qobiliyatlar tufayli olamda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ilg'ab oladi. O'sha o'zgarishlarning sodir bo'lishi sabablari haqida fikr yuritadi va borliqning turli shakllari to'g'risida m a’lum tasav vurga ega bo'ladi. |
| M8 | **Noklassik falsafa va inson borlig'i . Inson yaratuvchi mavjudot.**<br>XIX asrning 40—50-yillari Yevropa falsafiy fikrlash taraqqi yotida ulkan burilishlar pallasi bo‘lib, klassik falsafa an’analariga zid fikrlash madaniyati — antiklassik falsafa shakllana boshladi. Antiklassik falsafa qoidalari: personalizm, neopozitivizm, prag matizm, ssentizm, radikalizm, simvolizm va kosmizm, ayniqsa, ekzistensializm kabi falsafiy oqimlarda o'z ifodasini topdi. An tiklassik falsafa klassik falsafa tamoyillarini qayta ko'rib chiqishni, hatto |

| | |
|---|---|
| | uning ba'zi qoidalaridan umuman voz kechishni taklif etdi. Klassik falsafa qoidalariga keskin qarshi chiqish, uning qoi dalariga mutlaqo zid bo'lgan antiklassik nuqtayi nazardan yon dashish kayfiyati ekzistensializm falsafasining buyuk namoyan dalari, daniyalik olim S.Kyerkegor, germaniyalik faylasuflar A.Shopengauer, F.Nitsshe, O.Shpengler, rossiyalik faylasuflar N.A.Berdyaev, L.I.Shestov, ispan yozuvchisi M. de Unamuno asarlarida o'z ifodasini topdi. |
| M9 | **Inson - antroposotsiogenez jarayonining mahsuli. Insondagi tabiiylik va ijtimoiylik.**<br>Inson falsafaning bosh mavzusi. Insonning yaralishi, moxiyati va jamiyatda tutgan o'rni. Insonda biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlar. Inson tabiati. Inson va olam. Insonning olamda tutgun o'rni. Insonni nazariy va amaliy faoliyati. Texnosfera va noosferani shakllanishi. Ijtimoiy taraqqiyotning mazmuni va yo'nalishi. Borliq va inson. Madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo'lish shakllari sifatida. Insonga xos xususiyatlar, axloqiy normalar, uning faoliyatini boshqaruvchi dasturlar. Inson o'z xulq-atvorida ma'naviy-axloqiy motivlarga tayanishi. Inson ehtiyoji. Vital ehtiyoj (organik), ijtimoiy ehtiyoj (muloqot qilish, o'zini tan oldirish va h.), ma'naviy ehtiyoj (ideal – ijod qilish, bilish, axloq va h). "Yo'ldan ozdiruvchi" ehtiyojlar (masalan, chekish, spirtli ichimliklar ichish va h.), kvazi etiyojlar. Inson tarixiy va ekzistensial hodisa sifatida. Ijtimoiy mavjudod sifatida insonni shakllantiruvchi elementlar.Tarbiya, axloq, fan, din, san'at va h. Inson faolligi va faoliyatining ijtimoiy- madaniy turlari. Marginal inson. Ijtimoiy voqelikka munosabat bildirish usuli bo'yicha – konformist ("maksimum foyda, minimum noqulaylik"); pragmatik yoki eskepist (eskeydizm-jamiyatdan ongli ravishda qochish); jamiyatga tanqidiy yondashuvchilar-nigilist, reaksioner (konservator va retrograd, yangilikka qarshilik bildiruvchilar); revolyusioner(voqelikni o'zgartirishga intiladi, ko'pincha zo'ravonlik va buzg'unchilik usulini qo'llaydi); reformator. Insonning ijtimoiy-rolli yoki ekzistensial-namoyon bo'lishiga ko'ra tasnifi. Nazariy, pragmatik, estetik, ijtimoiy, siyosiy va diniy. |
| M10 | **Inson hayotining mazmuni va ma'nosi. Inson va insoniyat taraqqiyoti.**<br>"Inson taraqqiyoti" va "barqaror rivojlanish" tushunchalari. Inson taraqqiyoti mezonlari. "Inson kapitali". Inson kapitali – bu xodim ta'lim olish (maktab, kollej, litsey, institut, universitet, kasbiy tayyorgalik va malaka oshirish kurslari) hamda mehnat faoliyati jarayonida egallaydigan bilimlar va mehnat ko'nikmalar. Inson kaptali shakllanishi va rivojlanish muammolari. "Inson taraqqiyoti" konsepsiyasi. Inson taraqqiyoti mezonlari. Inson taraqqiyoti omillari. Inson taraqqiyoti indeksi va hisoblash usullari. "Inson taraqqiyoti indeksi" (Human Development Index – HDI) mamlakat yutuqlarining o'rtacha darajasini uch yo'nalish: salomatlik va uzoq umr ko'rish (umr davomiyligi), ta'lim sifati va darajasi (ta'lim olish davomiyligi) hamda munosib va farovon hayot kechirish darajasi (aholi jon boshiga yalpi milliy daromad) bo'yicha baholanishi. Barqaror rivojlanish. BMT sammitining (2010 yil) Ming yillik rivojlanish maqsadlaridagi asosiy masalalar (8 maqsad, 18 vazifa, 48 ko'rsatkich). BMT Bosh Assamblisining (2015 yil) 2030 yilgacha barqaror rivojlanish masalalari. Inson taraqqiyoti indikatorlari. Umr davomiyligi. |
| M11 | **Inson muammo sifatida. Inson evolyutsiyasi**<br>Inson hayotining m azm uni va m a'nosi haqidagi fikr-mulohazalarimiz, insoн zoti yer yuzidan yo'q b o 'lib ketishi mumkinmi? Uni saqlab qolish uchun nim a qilm oq darkor? In soni yatning yer kurrasida bundan keyin yashashi uchun kafolat bormi? degan m uam m olarga borib taqaladi. Hozirgi zam onning eng m uhim xususiyatlaridan biri — in son turm |



| | |
|---|---|
| | ush tarzining barcha sohalariga ilm iy-texnika yutuqlarining tezkorlik bilan kirib, turm ushning barcha jabhalari baynalm inallashuviga kishilar faoliyatida um um insoniy qadriyatlar aham iyatini kuchaytirayotgan b o 'lsada, o 'z navbatida, odam uchun dahshatli xavf-xatari ham vujudga keltirmoqda |
| M12 | **Ezgulik manbai. Muloqot qiluvchi fenomeni.**<br>Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzotlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzotlar ekanligi bilan belgilanadi. |
| M13 | **Tabiat mahsuli. Qo'rquv instinkti**<br>Tabiat odamning paydo bo'lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq. Umuman bu dunyo, odam, koinot; mikromakromegadunyolar; jonsiz va jonli borliq. Tor ma'noda tabiat fanlari o'rganadigan obyekt. Tabiat odamga, jamiyatga bog'liq bo'lmagan qonuniyatga bo'ysunadi. Odam tabiatning bir qismi. Odam tabiat qonunlarini o'zgartira olmaydi, faqat qonunlardan foydalanib, tabiat elementlarini, qismlarini o'zlashtirishi mumkin. Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashashi tabiiy sharoitlarining majmui sifatida ham qaraladi. Inson yashashi uchun mehnat qiladi, mehnat (mas., dehqonchilik, qurilish, sanoat), miya faoliyati va boshqa esa tabiatning ba'zi jihatlarini o'zgartiradi. |
| M14 | **Agressivlik instinkti. Jinsiy insting**<br>Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri agressivlikdir. *Agressiya* – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko'pchilik o'zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o'zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo'llari paydo bo'lishiga olib keladi.Jinsiy insting — jinsiy halovat qaror topishiga qaratilgan murakkab jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayonlar majmui. Jinsiy hayot urug' (avlod)ni davom ettirishi bilan birga erkak va ayol o'rtasidagi ma'naviy yaqinlikni ham ifoda etadi. Jinsiy hayotdagi ruhiy va jismoniy tomonning nisbati, shuningdek, seksuallikning har xil shakliga munosabat turli jamiyatda turlicha bo'lib, har bir jamiyatning o'z jinsiy axloq normalari bor. |
| M15 | **Inson yaratilishi: teologik versiya**<br>Murakkab va ko'p qirrali mavjudod-inson mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida "inson" "individ", "individualli"», "shaxs" tushunchalar orqali ifodalanishi. Inson faoliyati va insonlar o'rtasidagi aloqa. «Individ» tushunchasi muayyan insonning boshqa odamlardan alohidaligiki, «chegaralanib» olganligini ifoda etilishi. Individning asosiy xususiyati. Individ – bu insonning eng oddiy va abstrak tavsifi ekanligi. Sotsiologiya nuqtai nazaridan individ – bu inson naslining ayrim olingan vakili. Falsafada individ ijtimoiy atom, alohida ajralib turuvchi mohiyat sifatida ta'riflanishi. "Individ-jamiyat" aloqadorligi. O'z jamiyatini anglash. Individuallik – individdan shaxsga olib boruvchi pog'ona. «Sub'ekt» tushunchasi. Sub'ektivlik. Shaxs tushunchasi falsafada va umuman insonni o'rganuvchi fanlar majmuasida eng murakkab tushuncha ekanligi. Shaxsning shakllanishi jarayoni sotsializatsiya jarayoni sifatida tushunilishi. Shaxs o'z-o'zini tarbiyalovchi va o'z o'zidan rivojlanuvchi sistema. Shaxs faolligi mezonlari va yo'nalishlari. "Shaxs sifatni" belgilovchi xususiyatlar. Ijtimoiy inersiya va shaxs mustaqilligi. |

| | |
|---|---|
| | Mis. Bronza. Temir. Ayriboshlash va uning yangi shakllari. Sovg'a tarzida ayriboshlash. Yuk hayvonlaridan foydalanish. Mehnatning uchinchi yirik ijtimoiy bo'linishi, almashuv va savdo sotiqning yuksalishi. Ortiqcha mahsulotlar ishlab chiqarilishi natijasida uni qo'shimcha mahsulotga aylanishi. Ishlab chiqarishning rivojidagi notekislik, xilma-xillik va ularning sabablari. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning ixtisoslashish jarayoni. Mulkiy tengsizlik, xususiy mulk, tabaqalarning kelib chiqishi. Stratifikatsiyalashgan jamoa asoslarining vujudga kelishi. Boshqaruv tizimi: rahbarlar, lashkarboshlar, qozilar va ruhoniy-kohinlar. Urug' va qabila orasidan oqsuyaklarning yetishib chiqishi. Urug'chilik huquqlarining buzilishi. |
| M7 | **Til va madaniyat. Oila va nikoh.**<br>Lingvistik antropologiya sohasi va tilning kelib chiqishi. Mehnat, ong, til (filogenez), madaniyatni shaxsan o'zlashtirishi (ontogenez).<br>Oila va nikoh. Madaniyat. Jamiyatning yosh va jinsga qarab bo'linishi.Erkaklar uyi. Mulkning jinsga qarab bo„linishi. Jinsga qarab mehnat taqsimotining amalga oshirilishi. Nikoh va oila. Monogam oila. Nikoh puli - qalin. Ortokuzen. Nikoh odatlari. Ovunkulat, kuvada atamasi va urug„ tashkilotlari. Urug„ aloqalari o„rniga qo„shni aloqalar bilan almashuv jarayoni. To'y. Kelin. Oilada ota va buvaning roli. Oilaviy mulk. Jamoadagi ekzogami. Adaptatsiy. Jamoa boshqaruvi. |
| M8 | **Ijtimoiy madaniy jarayon ko'rsatkichlari va tushunchalari.**<br>**Ijtimoiy harakat nazariyasiga Talkott Parsonsning "Ijtimoiy harakat" tushunchasi**<br>Ilk urug' jamoasining ma'naviy madaniyati. Neandertal odamni o'rganishda anotomik yondashish. Arxeologik va etnografik yondashish. Neandertal odamning qabrlari. Dafn etish tartiblari. Sig„inish e"tiqodining vujudga kelishi. Kannibalizm. MagiY. Tabiat kuchlari va hayvonlarga sig„inish. Tasviriy sa"natning vujudga kelishi. So'nggi urug' jamoasining ma'naviy madaniyati. Ibtidoiy fikrlash. Neandertal odami bilan bog„liq yangi nazariyalar. Til va amaliy hayot. Abstrakt fikrlash. Hisob. Masofa va vaqt. PiktografiY. San"at va Musiqa. Muqaddas afsonalar. Diniy e"tiqodlar (totemizm, magiya, animizm, fetishizm). Tillar va etnoslar. Qabilalararo birlashmalar. Tillarning o'zaro ta'siri. Etnik birlashmalarning qadimiy xalqlarga aylanish jarayoni. Tillar va qabilalar til va etnik vaziyat. Nostratik til birlashmalari Afroosiyo, Hind-yevropa, Kartvel, Elam-dravid, Ural-oltoy, Nil-saxara, Niger-kardofa, Sino-tibet, Avstroosiyo, Avstroneziya til oilalari. Ibtidoiy jamoa va sivilizatsiya. Ibtidoiy periferiyalarda (uzoq chetdagi) stratifikatsiyalash. Jahonda tarixiy jarayonning notekis rivojlanishi. Sivilizatsiyaga nisbatan yaqin va uzoq periferiyalar. Ikkinchi darajali ibtidoiy periferiyalar. Etnik aloqalari va ularning turlari. Xo'jalik va diniy aloqalar. Ibtidoiy jamoalarning jahon old tarixdagi o'rni. Ibtidoiy sivilizatsiyalar va ularning tarqalishi. |
| M9 | **Kundalik hayot madaniyati.**<br>**Kundalik hayot tajriba dunyosi tarzida.**<br>Kundalik turmushni semiotik tizimi tarixi evolyutsiyasi. Til va madaniyat. Insonning turfa xilligi va jamiyat stratifikasiyasi. Jamiyatda mehnat taqsimoti va ijtimoiy tabaqalanish. Dehqonchilik, hunarmandchilik, mehnat taqsimoti. Uy-ro'zg'or, xo'jalik yurtish. |
| M10 | **Insonning turfa xilligi va jamiyat stratifikasiyasi. Etnos va etnomadaniyat. Millatlararo munosabatlarni boshqarish.**<br>Insonlar xilma-xilligi omillari. Irsiyat va muhit. Inson shaxsi xususiyatlarini merosiyligi. Mehnat taqsimoti turlari: fiziologik, texnologik, jamoatchilik va h.k. Bolaning IQ tizimi. |



| | |
|---|---|
| M11 | **Insonning yashash muhiti va etnologiyasi.**<br>**Inson hayotida mehnatni o'rni "Ishbilarmon odam" – "Homo faber".**<br>Inson mehnati evolyutsiyasini tabiiy-ilmiy izohi. "Inson-mehnat" nisbatini falsafiy-ijtimoiy izohi. Professional madaniyat. Zamonaviy kishi "ishbilarmon odam" (homo faber) – malakali inson mehnatni ma'lum turini mutaxassisi. Bilimlar dunyosi "Idrokli inson" – homo sapiens. Muhabbat dunyosi. "Sevuvchi kishi" – homo amoris. Sotsiologik tushunchalar: "oila", "nufuz", "qadriyat", "sakral", "dunyoviy". Sevgi va sakrallik tabiati xaqida (mulohaza) "Dunyoning ilmiy manzarasi" Ijtimoiy bilimlarning tafakkur tarixidagi vazifalari. E'tiqod, ishonch, tushuncha va so'zlar. Muhabbat hayot manbai sifatida. Ishratli kishi, ishrat madaniyati. Muhabbat madaniy omil sifatida |
| M12 | **Kurash dunyosi "Tajovuskor odam" – "homo agressius"**<br>**Inson hayotining tashvishli jihatlari: qo'rqish, ehtiros, qayg'u, qiyinchiliklar.**<br>Zo'ravonlik, yetakchilik va hukmronlik vositasi sifatida. Biogenetik va etnologik izoh. Insonlar hayotiga nisbatan hayvonot olami qonuniyatlarini ko'chirish. O.Shingler "Yevropa ufqi". Psixotahliliy izoh. Z. Freyd fikr-muloxazalari. Tajavuskorlikni ekologik izohi. Zo'ravonlikni ijtimoiy izohi. 5 Siyosat: mafkura va amaliyot. Fanatiklik va uning turlari. Qo'poruvchilikning ko'pqirralikligi. Ona (vatan, yer) va Ota (afsungan, sardor) arxitiplari bilan bog'liqligi. Empatiya asosida sharoitga mos mansublik. Sharoitiy mansublikni anglash. Shaxs mansubligi. Insoniy ehtiroslar: qo'rqish, ehtiros, qayg'u, qiyinchiliklar. |
| M13 | **O'yinlar dunyosi. "O'ynayotgan kishi" – "homo ludens"**<br>**Insonning o'limi va o'lmasligi muammolari .**<br>O'yin dunyosi: ma'lum muddatga, muhabbatga yetishish, dam olish, hissiyoti. O'yinlarning tabiati va mexanizmlari. I.Xeyzingan o'yinni madaniyat tahlili bo'yicha klassik olim. O'yinlar klassifikatsiyasi. Taraqqiyot yo'nalishlari. O'yinlarining to'rtta tipi: o'yin-ogon, o'yin-alea, o'yin-mimicru, mizeziye o'yini. |
| M14 | **Inson tabiatida ong va ongsizlik, o'z-o'zini anglash va kommunikatsiya.**<br>Inson ichki go'zalligining timsoli sifatida. Ong tuzilmasi. Ong va til. Til o'yinlari. Ong va ongsizlik. Z.Freyd: ongsizlikning xirsiy tabiati haqida. «U», «Men», «oliy-Men». Sublimatsiya va siqib chikarish. K.G.Yung neofreydizmning yirik vakili. Jamoaviy ongsizlik tushunchasi. Yungning arxetiplar haqidagi ta'limoti. A.Adler: inson nomukammal mavjudot. E.Fromm: ekzistentsial ruhiyat tahlilining asoschisi |
| M15 | **O'lim inson borlig'ining sir sinoati sifatida.**<br>Qadimiy afsonalarda o'lim va hayot haqidagi ilk bor tasavvurlar, fojiyaviylik borligi. Turli madaniyatlarda o'lim timsollari. O'lim yo'qlik sifatida. Noan'anaviy meditsina va psixologiyada o'lim haqidagi tasavvurlar. O'lim uzgacha borliq sifatida. Moudi va Elizabet Kubler Rossning klinik o'lim haqidagi tajribaviy kuzatuvlar. Diniy antropologiyada o'lim va hayot muammosi. Serafim Rouzning qarashlari. Ekzistentsial antropologiyada o'lim va hayot haqidagi qarashlar, chegaradosh vaziyat - o'lim va hayot o'rtasidagi vaziyat. Zamonaviy ratsional falsafada o'lim va hayot masalasining yechimi. |
| M16 | **Salomatlik – qadriyat sifatida. Hayot va o'lim. Inson erkinligi va uning chegarasi**<br>O'lim ekzistensial va madaniy fenomen tarzida. O'limdan keyingi hayot: tadqiqotlar tajribasi. Hayot o'limga qarshilik tarzida inson salomatligi. Insonni o'z hayotini yakuni sifatidagi o'lim bilan kurashi shakllari. |

| | |
|---|---|
| M17 | **Insoniy faoliyat motivlari va ijtimoiy yo'naltiruvchi omillari.**<br>A.Gelen, G.Plesner va E.Rotxaker ijodida insoniy faoliyat motivlari: ehtiyojlar, intilishlar, maqsadlar. Ehtiyojlar strukturasi. Mazmun – maqsadning muayyan tipi sifatida. A.Gelen inson va sotsium haqida. Ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlar. Urf-odatlar, huquq va axloq. M.Landman ruh erkinligi haqida. Erkinlik va mas'uliyat. G.-E.Xengstenberg ijodida erkinlik tanlov sifatida. Erkinlik fojiasi. F.Xammer individual muhabbat haqida. O.Markvardning inson-kompensator haqidagi g'oyalari. F.Gerxardtning inson faoliyatining omillari haqidagi qarashlari. |
| M18 | **Ezgulik, haqiqat va go'zallik – inson borlig'ining asosi sifatida. Sevgi – kishilararo munosabatning ideali**<br>Ko'pincha universal insoniy ma'naviy ideallar falsafada Ezgulik - Haqiqat - Go'zallik uchligi bilan belgilanadi. Bu uchlik bir sabab bilan qayd etilgan. Insonning ruhiy makoni, xuddi tashqi maydon kabi uch o'lchovlidir. Ijtimoiy mavjudot bo'lgan holda, odam u yoki bu axloq, axloq tizimida qatnashishi shart. Hatto negadir axloqiy me'yorlarni rad etgan holda ham, shaxs ularni hisobga oladi. Ezgulik ideali inson mavjudligining shu jihatiga to'g'ri keladi. Ezgulik axloqiy asosiy kategoriyadir. Etika - axloq, xulq haqidagi fandir. Ammo axloq va xulq nima? Axloqni jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solish, manfaatlarni uyg'unlashtirish shakli sifatida ta'riflash mumkin. |
| M19 | **Inson qadri va shaxsiy qadriyatlar. Inson omili – jamiyatning oliy qadriyatidir.**<br>Inson — olam sayqali. Boy va rang-barang madaniyatimiz, urf-odat va an'analarimiz, barcha qadriyatlarimiz millatimizning ma'naviy, ruhiy boyligini tashkil etadi. Uni chuqur o'zlashtirib, tushunib, anglab olgan inson oldiga qo'ygan har qanday maqsadga erishishi mumkin. Chunki xalqimiz tarixi, uning madaniyatini yaxshi bilgan kishi hech qachon ko'r-ko'rona ish tutmaydi. Aksincha tarix saboqlaridan kerakli xulosa chiqarib, hozirgi vaqtda sodir bo'layotgan jarayonlarni hisobga olib harakat qiladi. Demak, jamiyat taraqqiyoti insonning madaniy-ma'naviy saviyasi, uning dunyoqarashi, faolligi bilai uzviy bog'liq. Shuning uchun ham bu masala hech qachon faylasuflar diqqat-e'tiboridan chetda qolgan zmas. Ayniqsa, insonning ichki dunyosi, kayfiyatlari, qiziqishlari, ruhiy iztiroblari. |
| | **IV. Mashg'ulotlar shakli: Ma'ruza (M38)** |
| M1 | **Globallashuv davrida shaxsiy qadriyatlar va inson erkinligi haqida turli xil yondoshuvlar**<br>Shaxsiy qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyatlar. Holbuki qadriyat aksiologiyaga xos kategoriyadir. Qadriyatni aksiologiya nuqtayi nazaridan talqin qilish uni kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganish. Qadriyat kategoriyasi buyum va narsalarning iqtisodiy qimmati, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar. |
| M2 | **Ma'naviyat – inson borlig'ining asosi sifatida. Ma'naviy qashshoqlik – globallashuv davrining fojiasidir.**<br>Ong va uning mohiyati. Inson ma'naviy dunyosi, o'zining dunyoda borligini anglab yetish va tashqi dunyoga munosabati. Inson ma'naviy borlig'i sistemani tashkil etuvchi element sifatida. Barqarorlik (muvozanat, turg'unlik, takrorlanuvchanlik, murosa, kelishuvchanlik) va beqarorlik tushunchalari, ularning sistema mavjudligiga ijobiy va salbiy ta'siri. Inson ruhiy (tabiati, instinkt, did, kayfiyat, mayd, tuyg'u, kechinma, hayrat, iztirob, zavq, qo'rquv va h.) va ma'naviy (ongi, bilimi, aqli, maqsadi, farosati, ijod, muloqot va h.) |



| | |
|---|---|
| | holatidagi barqarorlik va beqarorlik. Inson ruhiyati, umuman ma'naviy olamida beqarorlik xosligi. Inson ma'naviy borlig'ida beqaror holatlarning kelib chiqishi sabablari (inson talablari, ehtiyojlari va imkoniyatlarining garmonik tarzda rivojlanmaganligi, jamiyatdagi iqtisodiy ijtimoiy munosabatlar va h.). Beqarorlikning sodda va murakkab shakllari va darajalari. Beqarorlikning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni. Inson ma'naviy 6 borlig'ida barqarorlik va beqarorlik holatlarining me'yoriy darajasi. Inson ma'naviy borlig'ida nochiziqlik prinsipining amal qilishi. Iroda erkinligi. Ichki va tashqi ta'sirlar natijasida inson ma'naviy borlig'ida sifatiy o'zgarishlar xaotik yoki tartiblashgan tarzda sodir bo'lishi. Tizimdagi nochiziqlik mexanizmini bifurkatsiya jarayoni ta'minlashi. Bifurkatsiya (ingzizcha- sanchqi) holatida sistema oldida bir necha yo'llar paydo bo'lishi va to'g'ri variantlardan birini tanlashida sifatiy o'zgarishlar ro'y berishi. Sifatiy o'zgarishlarning musbat va manfiy bo'lishi. Bu jarayonlar fazo va vaqtdabir xil emasligi. O'tish davrlarida keskin, bo'ronli kechishi yoki sistemaning yetuklik davrida barqarorlik sodir bo'lishi, zamonada tobora barqaror tizimlarni tashkil eta borishi. Insonning barqaror taraqqiyotga intilishi va bunda har xil tashqi ta'sirlarning inson ma'naviy borlig'iga ta'sirining kamayishi. |
| M3 | **Milliy ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash. Ijtimoiy inersiya va shaxs mustaqilligi.**<br>Ma'naviy o'zlikni anglash – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga bel bog'lagan xalqimiz, ayniqsa, yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismi, tarixiy xotirani tiklash, o'tmish avlodlarga munosib bo'lish, ular qoldirgan ma'naviy merosni asrab-avaylash va takomillashtirish omili. Ma'naviy o'zlikni anglash jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirish va yangilash, yangi tafakkurni shakllantirishning asosiy vositalaridan biridir. Ma'lumki, shaxsda ko'plab ijtimoiy-insoniy fazilatlar bilan birga ma'naviy o'zlikni anglash xususiyati ham mujassamdir. Bu g'oyat ko'p qirrali, murakkab, ayni paytda, ziddiyatli hayot ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun unga kompleks yondashish talab etiladi. Avvalo, ma'naviy o'zlikni anglash keng ma'nodagi milliy o'zlikni anglashning tarkibiy qismidir. Shuning uchun ma'naviy o'zlikni anglash milliy taraqqiyotning nafaqat belgisi, xuddi shuningdek, maqsadi hamdir. Demak, ma'naviy o'zlikni anglash ijtimoiy fenomen sifatida milliy taraqqiyot maqsadi bilan uyg'unlikda talqin etilishi zarur. |
| M4 | **Globallashuv davrida inson ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligi masalasi: ilmiy-falsafiy yondashuv**<br>Bugungi kunda "Globallashuv" atamasi atrofida kechayotgan bahslarda turlicha munosabatlar kuzatilmoqda. Ayrimlarning fikricha, bu jarayonlarni bo'lajak xalqaro fuqarolik jamiyatining alomati, yangi dunyo va demokratiya davrining boshlanishi deb hisoblaydi. Boshqalar uchun globallashuv G'arbning, asosan Amerikaning iqtisodiy va siyosiy gegemoniyasi bo'lib, uning natijasida madaniyat butun dunyoda bir xil shaklga kirib, Disneylendning o'ziga xos jalalangan ko'rinishini kasb etadi. Albatta, bunday qarashlar asosga ega bo'lsa-da, alohida olinganda hozirgi dunyoning manzarasini to'liq aks ettirmaydi. Globallashuv jarayonlari eng ilg'or, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, tezkor zamonaviy kommunikatsiya va aloqa vositalari tizimlarining rivojlanishi, ilmiy, texnik va boshqa, odamlar hayot-faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotni jamlash va taqsimlash, mehnat unumdorligini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratib, bu borada cheklanmagan imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. |
| M5 | **Zamonaviy shaxs nazariyasidagi asosiy g'oyalar. Individ, individuallik va shaxs.**<br>Murakkab va ko'p qirrali mavjudod-inson mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida "inson" "individ", "individualli"», "shaxs" tushunchalar orqali ifodalanishi. Inson faoliyati va |

| | |
|---|---|
| | insonlar o'rtasidagi aloqa. «Individ» tushunchasi muayyan insonning boshqa odamlardan alohidaligiki, «chegaralanib» olganligini ifoda etilishi. Individning asosiy xususiyati. Individ – bu insonning eng oddiy va abstrak tavsifi ekanligi. Sotsiologiya nuqtai nazaridan individ – bu inson naslining ayrim olingan vakili. Falsafada individ ijtimoiy atom, alohida ajralib turuvchi mohiyat sifatida ta'riflanishi. "Individ-jamiyat" aloqadorligi. O'z jamiyatini anglash. Individuallik – individdan shaxsga olib boruvchi pog'ona. «Sub'ekt» tushunchasi. Sub'ektivlik. Shaxs tushunchasi falsafada va umuman insonni o'rganuvchi fanlar majmuasida eng murakkab tushuncha ekanligi. |
| M6 | **Hozirgi zamon sivilizasiyasining inson ijtimoiy qiyofasiga ta'siri**<br>Hozirgi zamon sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlari va namoyon bo'lishi. Internet-global tarmog'i va global ong. Ijtimoiy tarmoqlar, ularning inson uchun virtual makonni yaratish imkoniyatlari. G'oya va takliflar bilan tanishish. Iste'molchilar va sheriklar bilan munosabatlarning rivojlanishi. Inson resurslarini boshqarish izchilligi, motivlashtirish, rag'batlantirish, tashkiliy rivojlanish, karerani boshqarish. Salohiyatli kadrlar, tanlash va baholash. Ma'sofaviy ta'lim va bilim olish imkoniyatlari. Global etika va gumanizm. Inson turmush tarzida, uning ongi va faoliyatida vujudga kelgan turli muammolarni stol atrofida o'tirib muhokama qilish, g'ayriinsoniy munosabatlarni yuksak madaniy ma'rifiy muloqotlar, uchrashuvlar, turli aloqalar yo'li bilan hal etishning avj olganligi. Umuminsoniy muammolarni bartaraf etish uchun jahonning barcha davlatlari, barcha millat va elatlar birlashib harakat qilishlarining zaruriyati kundan kunga oshib borishi. Insoniyat endilikda hamkorlik qilish madaniyatiga ega bo'lishi zarurligini anglashi. Har bir kishining taqdiri, baxt-saodati, insoniyatning taqdiri eng avvalo, yer yuzida tinchlikni saqlash, yadroviy urushning oldini olish, qurollanish poygasiga chek qo'yish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bilan bevosita bog'liq ekanligi. |
| M7 | **Shaxs ijtimoiylashuv jarayonining mahsuli. Tafakkur erkinligi va shaxs faolligi.**<br>Shaxsning shakllanishi jarayoni sotsializatsiya jarayoni sifatida tushunilishi. Shaxs o'z-o'zini tarbiyalovchi va o'z o'zidan rivojlanuvchi sistema. Shaxs faolligi mezonlari va yo'nalishlari. "Shaxs sifatni" belgilovchi xususiyatlar. Ijtimoiy inersiya va shaxs mustaqilligi. Mustaqil shaxsni shakllantirishning metodologik asoslari. Falsafa tarixida shaxs haqidagi qarashlarning o'zgarib borishi. Shaxsning sharqqa xos modeli. Shaxsning g'arb, yevropa-amerika konsepsiyalari. Shaxsning sharq tipiga xos asosiy xususiyatlari. Buyuk shaxslarning ijtimoiy taraqqiyotidagi roli. Shaxsning noyobligi va takrorlanmasligi. Shaxs shakllanishida oila, mahalla, mehnat jamoalari va ta'lim-tarbiya muassasalarining hamkorligi shaxs dunyoqarashining shakilanishi va rivojlanishida jamoat tashkilotlari va o'z o'zini boshqarish tizimining funksonal mohiyat. Shaxs erkinligi, tashabbuskorligi va mustaqilligini kuchaytirish –fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili Hozirgi zamon fanida inson shaxsi konsepsiyalari. Zamonaviy shaxs nazariyasidagi asosiy g'oyalar. Innovatsion shaxs tipining xususitlari. Saqlash (axloqiy tafakkur); fikrlash (unumli tafakkur); baholash (ijodiy tafakkur); yangilik (innovatsion tafakkur); maqsad (ijtimoiy taakkur). |
| M8 | **Fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida inson omiliga yangicha yondashuv**<br>Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning Siyosat" asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bu g'oyalar XVII asrga |



| | |
|---|---|
| | kelib keng rivojlandi. Jumladan, T.Gobbos asarlarida takomillashtiriddi. XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquklari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huqukli a'zolari – „fuqarolar" tushunchasi paydo bo'ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog'langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. |
| M9 | **Inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanish. Inson ma'naviy borlig'i: barqarorlik va beqarorlik dialektikasi**<br>Inson falsafaning bosh mavzusi. Insonning yaralishi, moxiyati va jamiyatda tutgan o'rni. Insonda biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlar. Inson tabiati. Inson va olam. Insonning olamda tutgun o'rni. Insonni nazariy va amaliy faoliyati. Texnosfera va noosferani shakllanishi. Ijtimoiy taraqqiyotning mazmuni va yo'nalishi. Borliq va inson. Madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo'lish shakllari sifatida. Insonga xos xususiyatlar, axloqiy normalar, uning faoliyatini boshqaruvchi dasturlar. Inson o'z xulq-atvorida ma'naviy-axloqiy motivlarga tayanishi. Inson ehtiyoji. Vital ehtiyoj (organik), ijtimoiy ehtiyoj (muloqot qilish, o'zini tan oldirish va h.), ma'naviy ehtiyoj (ideal – ijod qilish, bilish, axloq va h). "Yo'ldan ozdiruvchi" ehtiyojlar (masalan, chekish, spirtli ichimliklar ichish va h.), kvazi etiyojlar. Inson tarixiy va ekzistensial hodisa sifatida. Ijtimoiy mavjudod sifatida insonni shakllantiruvchi elementlar.Tarbiya, axloq, fan, din, san'at va h. Inson faolligi va faoliyatining ijtimoiy- madaniy turlari. Marginal inson. Ijtimoiy voqelikka munosabat bildirish usuli bo'yicha – konformist ("maksimum foyda, minimum noqulaylik"); pragmatik yoki eskepist (eskeydizm-jamiyatdan ongli ravishda qochish); jamiyatga tanqidiy yondashuvchilar-nigilist, reaksioner (konservator va retrograd, yangilikka qarshilik bildiruvchilar); revolyusioner(voqelikni o'zgartirishga intiladi, ko'pincha zo'ravonlik va buzg'unchilik usulini qo'llaydi); reformator. Insonning ijtimoiy-rolli yoki ekzistensial-namoyon bo'lishiga ko'ra tasnifi. Nazariy, pragmatik, estetik, ijtimoiy, siyosiy va diniy. |
| M10 | **Tarbiya-ijtimoiy borliqning murakkab shakli.**<br>Tarbiyaning o'ziga xos muxim xususiyatlari va funksiyalari. Ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong-doimo o'zgarishda, bo'lgan jamiyat hayotining moddiy va ma'naviy tomomlarini uzviy aloqadorlikda va o'zaro ta'sirda ekanligini ifodalovchi, sobiq ittifoqda mutlaqlashtirilgan falsafiy tushuncha. Ijtimoiy borliq kishilarning amaliy faoliyatida yaratilgan, ularning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi barcha narsa, jarayon va hodisalar majmuidan iborat. Ijtimoiy ong jamiyatni salohiyat darajasini, siyosiy potensialini belgilovchi falsafiy kategoriya. Axloq, din, sa'nat, fan kabi madaniyat tizimiga kiruvchi ijtimoiy ong shakllari mavjud. Ijtimoiy hayotni moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu jarayonni ta'minlovchi bosh omil tafakkur qobiliyatiga ega bo'lgan insondir. Binobarin, ijtimoiy borliqsiz ijtimoiy ongning, ijtimoiy ong faol ishtirokisiz jamiyatning moddiy rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi. |
| M11 | **Ijtimoiy tarbiya sistemasi. Mafkura- tarbiyaning aniq maqsad tamon yo'naltirilgan qismi**<br>Ijtimoiy tarbiya —butun jamiyatga, xalqqa millat, tabaqaga ko'rsatilgan maqsadga muvofiq tarbiyaviy ta'sir. Ijtimoiy tarbiya yordamida fuqarolarning xulq- atvori, xatti-harakati yagona maqsad tomon yunal- tiriladi. Xuddi shuning uchun ham I.t. — tarbiyaviy tasirning yagona dastur asosida amalga oshirila- digan ongli kismdir. I.t. tizimining samaradorli- gini oshirish ushbu jarayon tashkilotchilari va tar- g'ibotchilari, eng avvalo, uning maqsadi va vazi- falari, ustuvor yo'nalishlari va sohalari omilla- ri va vositalari, uslublari va usullari haqida m kutubxoasi tinik tasavvurga ega bo'lishiga bog'liq. Chunonchi, mamlakatimizda |

| | |
|---|---|
| | yangi jamiyat qurilayotgan hoz, sha- roitda I.t.ning asosiy maqsadi insonparvar de- mokratik jamiyat, huquqiy davlat, yagona umummil- liy goya atrofida fuqarolarni birlashtirishdan iborat |
| M12 | **Aqliy tarbiya. Axloqiy tarbiya**<br>Aqliy tarbiya shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni to'plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi.<br>Axloqiy tarbiya – jamiyatdagi axloqning yuksaklik darajasini, fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushuncha. U shaxsning jamiyatdagi asosiy axloq me'yorlarini egallashi va o'zgalar bilan shu asosda munosabatda bo'lishi, o'zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Axloqiy aqidalarning eng muhim omillaridan biri – muomala odobi. Insonlar bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, o'zaro ta'sir ko'rsatmasdan yashashi mumkin emas. |
| M13 | **Xuquqiy tarbiya. Siyosiy tarbiya**<br>Huquqiy tarbiya – bu jamiyat a'zolarining yurish – turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib borish jarayonidir . Har bir jarayonning o'z maqasadiga muvofiq bo'lgan vazifalari bo'ladi. Masalan, tarbiyaning ijtimoiy vazifasi shaxsni foydali faoliyatga o'rgatish hisoblansa, huquqiy tarbiyaning asosiy vazifasi fuqarolarning ongida qonunlarni anglash, ularni tushunish, huquq normalariga rioya qilish kabi bir qator jarayonlarni yuzaga keltirishdan iboratdir. Hammamizga ma'lumki, qonunlarga rioya qilish uchun , avvalo , ularni bilish kerak. Aynan qonunlarni bilish to'g'risidagi tasavvurlarni, yo'l – yo'riqlarni shakllantirish ham huquqiy tarbiyaning bir vazifasidir. |
| M14 | **Milliy va baynalminal tarbiya. Vatanparvarlik tarbiyasi**<br>Baynalmilalchilik (arab, "baynalmilal" — millatlararo) — jahondagi turli millat va irqlarga mansub kishilarning xalqaro birdamligi; ularning bir-birlarini tushunishlari va o'zaro ishonchining, madaniyatlar, qadriyatlar, bilim va texnologiyalar o'zaro singib borishining asosi; millatchilikning ziddi. Insoniyat tarixi turli millatlar va elatlar orasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy aloqalar o'rnatilib, ularning tobora mustahkamlanib borishi jarayonidir, mazkur munosabatlarsiz esa ijtimoiy taraqqiyot amalga oshmaydi.<br>Yoshlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirish, ularni harbiy xizmatga, o'z Vatani -O'zbekiston Respublikasini himoya qilishdagi burchlarini bajarishga har tomonlama tayyorlash -o'quv yurtlari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biridir.Bu vazifani muvaffaqiyatli ravishda ychish uchun Harbiy ta'lim mutaxassisligi bo'yicha o'qitilayotgan «Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari» fani yaqindan yordam beradi. «Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari» fanini o'rganish predmeti sifatida, yoshlar harbiyvatanparvarlik tarbiyasining uslubiy va mafkuraviy-nazariy asoslari, o'quv yurtidagi harbiyvatanparvarlik tarbiyasining tizimi, o'quvchi yoshlarni Qurolli Kuchlar xizmatiga, Vatan himoyasiga ma'naviy-siyosiy, psixologik, harbiy-texnik va jismoniy tayyorlashni tashkillash, uning mazmuni, shakl va uslublari hisoblanadi. |
| M15 | **Mexnat tarbiyasi. Estetik tarbiya**<br>Mehnat tarbiyasi – Talabalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan qurollantirish. Mehnatsevarlik, mehnatning har xil shakllarini tavsiya etish qobiliyatini namoyon etib, tadbirkorlik va ijodiy yondoshuvni namoyon etish xususiyatlarining egasi sifatida shakllantirish.<br>Estetik tarbiya – tarbiyalanuvchilarda estetik ideallar, ehtiyoj va qiziqishni rivojlantiruvchi |



| | |
|---|---|
| | tarbiya zanjiri va tarbiyaviy tizimlarning tayanch tarkibiy qismlaridan biri. Estetik tarbiyaning vazifalari: estetik bilimlarni shakllantirish; estetik madaniyatni shakllantirish; o'tmishdan qolgan estetik va madaniy merosni egallash; borliqqa estetik munosabatni shakllantirish; estetik his-tuyg'uni rivojlantirish; ta'lim oluvchilarni hayotda, tabiyatda, mehnatda go'zalliklarni yaratishga ishtirok ettirish. |
| M16 | **Jismoniy tarbiya. Ekologik tarbiya**<br>Jismoniy tarbiya (badan tarbiya) – sog'liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko'rsatkichlardan biri. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg'ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo'shib olib boriladi.<br>Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgata boriladi. |
| M17 | **Ish vaqti. Bo'sh vaqt**<br>Ish vaqti — xodimning ijtimoiy tashkil etilgan mehnatda ishtiroki davomiyligi me'yori; xodim bevosita o'z mehnat vazifalarini bajarishi uchun lozim bo'lgan, qonun bilan yoki qonun asosida belgilangan vaqt.<br>Tabelda belgilangan, ya'ni ish vaqtida ish joyida bo'lganlikni hisobga olish hujjatida qayd qilingan real vaqt ish vaqti hisoblanadi. Ish vaqti ishlab chiqarish uchun ketgan mehnat sarfi va mehnat harajatlari hajmini ifodalaydi, ya'ni mehnatning o'lchovi hisoblanadi. Ish vaqtini o'lchashning asosiy birliklari kishi-kun, kishi-soat, kishi-minut (xronometraj, ish vaqti fotografiyasi va lahzaviy kuzatishlar o'tkazish), kishi-oy, kishi-chorak, kishi-yil kabilardan iborat. Tabel hisobi kishi-kunda hisoblanadigan ish vaqti haqidagi ma'lumotlarning asosiy manbadir.<br>Bo'sh vaqt – vaqt shakllaridan biri bo'lib, kishining ishdan tashqari vaqtining bir qismi, uning jismoniy yoki aqliy mehnat bilan shug'ullanmaydigan, ba'zida esa jismonan va ruhan hordiq olish uchun ajratadigan vaqtni anglatuvchi tushuncha. |
| M18 | **Milliy va umum insoniy qadiryatlar**<br>O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach samarali tashqi siyosat olib borayotgan xalqaro munosabatlar sub'ektiga aylandi. Shu yo'l bilan u o'zining milliy manfaatlarini himoya qilibgina qolmasdan, ularni yangi yuqori darajaga ko'tardi. O'zbekistonning jahon arenasida munosib o'rin egallashiga nafaqat uning boy madaniy tarixi, qulay geografik joylashuvi, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, yoki boy tabiiy resurslari balki uning barkamol avlodni tarbiyalashdagi harakatlari, ularga milliy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni singdirish va bu sohada erishayotgan yutuqlari sabab bo'lmoqda. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy urf-odatlarni, ajdodlarimiz merosini qadrlash ruhida tarbiyalash, tarixiy-milliy xususiyatlarimizga mos keladigan ta'lim tizimini yaratish orqali erishiladi. |
| | **V. Mashg'ulotlar shakli: Semenar (S32)** |
| S1 | Falsafiy antropologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. |
| S2 | Inson haqidagi fikrlar taraqqiyotining davrlarga bo'lish amaliyoti. |

| | |
|---|---|
| S3 | Qadimgi Hind va Xitoy falsafasida inson tavsifi. |
| S4 | Qadimgi Eron va Turon falsafasida inson tasviri. |
| S5 | Elenizm davrida antropologik qarashlari |
| S6 | Xristian falsafasida inson tavsifi. |
| S7 | Renessans davri xristian falsafasining antropotsentrik xususiyati. |
| S8 | Gumanistik g'oyalaming shakllanishi. |
| S9 | Olam, odam, Xudo borlig'i va birligi haqidagi tasvvurlaming tubdan o'zgarishi. |
| S10 | Inson manfaatlari va ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini himoyalash yo'llari va vositalarini izlab topish harakatining avj olishi. |
| S11 | Musulmon falsafasida inson tafsiri. |
| S12 | Musulmon madaniyati va uning o'ziga xos xususiyatlari. |
| S13 | Sunniylik: mutakallimlik, mu'taziliylik va shialik ta'limotlarida inson borlig'i. |
| S14 | Tasavvuf falsafasi va insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti. |
| S15 | Tasavvufda inson barkamolligining bosqichlari. |
| S16 | G'azzoliyning antropologik qarashlari. |
| | **VI. Mashg'ulotlar shakli: Semenar (S38)** |
| S1 | Kubraviyada inson ma'naviy qiyofasi. |
| S2 | Yassaviyada inson ta'rifi. |
| S3 | Naqshbandiyada inson timsoli. |
| S4 | XVI-XIX asrning birinchi yarmida musulmon falsafasida barkamol inson g'oyalarining targ'ibot va tashviqot qilinishi . |
| S5 | XVII-XVIII asrlar Yevropa falsafasida ma'rifatparvarlik g'oyalarining ifodalanishi. |
| S6 | XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlarining jamiyat hayotini insonparvarlashtirish borasidagi sa'y-harakatlari. |
| S7 | Klassik falsafaning insonshunoslik an'analarini shakllantirishda va rivojlantirishda nemis faylasuflari Immanuil Kant, Iogann Fixte, Fridrix Shelling, Vilgelm Gegel, Lyudvig Feyerbaxlar ning xizmatlari. |
| S8 | Noklassik falsafa va inson borlig'i . Inson yaratuvchi mavjudot. |
| S9 | Inson - antroposotsiogenez jarayonining mahsuli. Insondagi tabiiylik va ijtimoiylik. |
| S10 | Inson hayotining mazmuni va ma'nosi. Inson va insoniyat taraqqiyoti. |
| S11 | Inson muammo sifatida. Inson evolyutsiyasi |



| | |
|---|---|
| S12 | Ezgulik manbai. Muloqot qiluvchi fenomeni. |
| S13 | Tabiat mahsuli. Qo'rquv instinkti |
| S14 | Agressivlik instinkti. Jinsiy insting |
| S15 | Inson yaratilishi: teologik versiya |
| S16 | Inson mavjudligining ma'nosi. Insoniy borliq |
| S17 | Insoniy borliqning ekzistensial talqini. Insonning borlig'i, erkinligi va mas'uliyati |
| S18 | Hayot - bu inson bo'lish usuli. |
| S19 | Hayotning ma'nosi va o'tmishni davom ettirish |
| | **VII. Mashg'ulotlar shakli: Semenar (S38)** |
| S1 | Odam va uning ajdodlarining hayvonot dunyosidan ajralib chiqishi |
| S2 | Gominidlar evolyutsiyasining ilk bosqichi. Avstrolopiteklar zamonaviy qiyofadagi odamning vujudga kelishi va antropogenez jarayoning tugallanishi (Homosapiens). |
| S3 | Insoniyat tarixning davrlashtirilishi va vaqtni aniqlash usullari: formasiyaviy va sivilizasiyaviy yondoshuvlar. |
| S4 | Antropogenez jarayoniga oid zamonaviy nazariyalar. |
| S5 | Ilk urug'jamoasi. |
| S6 | Ishlab chiqarishning rivojlanishi va ibtidoiy tuzumning yemirilishi. Harbiy demokratiya va uning mohiyati. |
| S7 | Til va madaniyat. Oila va nikoh. |
| S8 | Ijtimoiy madaniy jarayon ko'rsatkichlari va tushunchalari.<br>Ijtimoiy harakat nazariyasiga Talkott Parsonsning "Ijtimoiy harakat" tushunchasi. |
| S9 | Kundalik hayot madaniyati.<br>Kundalik hayot tajriba dunyosi tarzida. |
| S10 | Insonning turfa xilligi va jamiyat stratifikasiyasi. Etnos va etnomadaniyat. Millatlararo munosabatlarni boshqarish. |
| S11 | Insonning yashash muhiti va etnologiyasi.<br>Inson hayotida mehnatni o'rni "Ishbilarmon odam" – "Homo faber". |
| S12 | Kurash dunyosi "Tajovuskor odam" – "homo agressius"<br>Inson hayotining tashvishli jihatlari: qo'rqish, ehtiros, qayg'u, qiyinchiliklar. |
| S13 | O'yinlar dunyosi. "O'ynayotgan kishi" – "homo ludens"<br>Insonning o'limi va o'lmasligi muammolari. |
| S14 | Inson tabiatida ong va ongsizlik, o'z-o'zini anglash va kommunikatsiya. |
| S15 | O'lim inson borlig'ining sir sinoati sifatida. |
| S16 | Salomatlik – qadriyat sifatida. Hayot va o'lim. Inson erkinligi va uning chegarasi |

| | |
|---|---|
| S17 | Insoniy faoliyat motivlari va ijtimoiy yo'naltiruvchi omillari. |
| S18 | Ezgulik, haqiqat va go'zallik – inson borlig'ining asosi sifatida. Sevgi – kishilararo munosabatning ideali. |
| S19 | Inson qadri va shaxsiy qadriyatlar. Inson omili – jamiyatning oliy qadriyatidir. |
| | **VIII. Mashg'ulotlar shakli: Semenar (S36)** |
| S1 | Globallashuv davrida shaxsiy qadriyatlar va inson erkinligi haqida turli xil yondoshuvlar. |
| S2 | Ma'naviyat – inson borlig'ining asosi sifatida. Ma'naviy qashshoqlik – globallashuv davrining fojiasidir. |
| S3 | Milliy ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash. Ijtimoiy inersiya va shaxs mustaqilligi. |
| S4 | Globallashuv davrida inson ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligi masalasi: ilmiy-falsafiy yondashuv. |
| S5 | Zamonaviy shaxs nazariyasidagi asosiy g'oyalar. Individ, individuallik va shaxs. |
| S6 | Hozirgi zamon sivilizasiyasining inson ijtimoiy qiyofasiga ta'siri |
| S7 | Shaxs ijtimoiylashuv jarayonining mahsuli. Tafakkur erkinligi va shaxs faolligi. |
| S8 | Fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida inson omiliga yangicha yondashuv. |
| S9 | Inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanish. Inson ma'naviy borlig'i: barqarorlik va beqarorlik dialektikasi. |
| S10 | Tarbiya-ijtimoiy borliqning murakkab shakli. |
| S11 | Ijtimoiy tarbiya sistemasi. Mafkura- tarbiyaning aniq maqsad tamon yo'naltirilgan qismi. |
| S12 | Aqliy tarbiya. Axloqiy tarbiya. |
| S13 | Xuquqiy tarbiya. Siyosiy tarbiya. |
| S14 | Milliy va baynalminal tarbiya. Vatanparvarlik tarbiyasi. |
| S15 | Mexnat tarbiyasi. Estetik tarbiya. |
| S16 | Jismoniy tarbiya. Ekologik tarbiya. |
| S17 | Ish vaqti. Bo'sh vaqt. |
| S18 | Milliy va umum insoniy qadiryatlar. |

**IX. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**
**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular**
**"Inson falsafasi" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi (340)**

| № | Mavzu nomi |
|---|---|
| 1. | Jamiyat va inson falsafasi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi. |
| 2. | Qadimgi Hindistonda jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar. |



| | |
|---|---|
| 3. | Qadimgi Xitoy falsafasida inson muammosi. |
| 4. | Qadimgi Yunon faylasuflarini ijodida jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar. |
| 5. | Arastu ijodida inson va uni jamiyat hayotida tutgan o'rni masalasi. |
| 6. | Foma Akvinskiy ta'limotida inson va jamiyat muammolarini yoritilishi. |
| 7. | Avgustini inson to'g'risidagi qarashlari. |
| 8. | Musulmon sharqida inson va uni ijtimoiy qiyofasi haqida. |
| 9. | Farobiy inson va jamiyat haqidagi qarashlari. |
| 10. | Ibn Sino va Beruniylarni inson va jamiyat haqidagi qarashlari. |
| 11. | Tasavvuf tariqatlarida insonning barkamollik bosqichlari. |
| 12. | Naqshbandiy ta'limotida inson ijtimoiy qiyofasi |
| 13. | G'arb uyg'onish davrida jamiyat va inson to'g'risidagi rivoji. |
| 14. | Utopistlarni ijodida insonni ma'naviy qiyofasi |
| 15 | A.Jomiy va A.Navoiylarni ijodida insonni ijtimoiy, ma'naviy qiyofasi |

**Izox:** adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, slaydlar va prezentasiya shaklida taqdimot qilinadi.

| | |
|---|---|
| | **X. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>- siyosat falsafasining xususiyatlari; ilmiy va ijodiy qiziqishlarni yaratishning ahamiyati; o'qitishning passiv, aktiv va interaktiv shakllarining mazmuni; tanqidiy tafakkur tushunchasi; o'qitishning assosiativ metodlari; o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy metodlari; bilimni baholash mezonlari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***<br><br>siyosat falsafasi fanini interaktiv shakldagi o'qitishda talaba va talaba amaliyoti o'rtasidagi o'zaro tasirning mavjudligi; tanqidiy tafakkurning talabaning tarbiyalash va o'qitishdagi ahamiyati; o'qitishning innovasion metodlari; o'qitishning assosiativ metodlari; talabalarni Keys-stadis metodi asosida o'qitish haqida ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;<br><br>aktiv shakldagi o'qitishda o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligi; tanqidiy tafakkurning xarakterli belgilari; talabalarning guruhlardagi faoliyati; talabalar bilimini baholash va nazorat qilish tizimi kabilarni ***bilishi va ulardan foydalana olish malakasiga ega bo'lishi kerak***. |
| 3. | **XI. Ta'lim texnoligiyalari va metodlari:**<br>ma'ruzalar;<br>interfaol keys-stadilar;<br>"Aqliy hujum" metodi;<br>"T-jadval", "Venna" tahlil metodi va boshqa interfaol metodlar |
| 4. | **XII. Kreditni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish |
| 5. | **ASOSIY ADABIYOTLAR:**<br>1. Қобулниёзова Г.Т. Фалсафий антропология. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2022 й. – 95 б.<br>2. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi –. -T.:"Noshir", 2009.<br>3. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. – T.: Universitet, 2005. |

| | |
|---|---|
| | 4. Inson falsafasi: A.R.Samadov, O.G'aybullayev. O'quv qo'llanma, Samarqand-2022. – 196 bet.<br>5. Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006.<br>6. Qurbonova L. Inson falsafasi. –Andijon: ADU, 2009<br><br>**QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**<br>7. Aristotel. Sochineniya V 4-x tomax. -M.: 1975. ch.1.<br>8. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. Nazarov Q. tahriri ostida. – T., 2004.<br>9. G'arb falsafasi. Nazarov Q. tahriri ostida. – T.: Sharq, 2005<br>10. Falsafa ensiklopedik lug'at. Nazarov Q.tahriri ostida. –T.: Sharq, 2011.<br>11. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2008.<br>12. Gurevich P.S.Osnovi filosofii – M.: 2002.<br>13. Ochildiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. – T.: O'zbekiston, 2004.<br>**AXBOROT MANBALARI (SAYTLAR):**<br>www.lex.uz, www.ziyonet.uz, www.gov.uz, www.usaid.gov, www.faylasuf.uz, http//www.intencia.ru, http://www.anthropology.ru, http://www.filosofia.ru, http://www.falsafa.dc.uz,http://www.phenomen.ru, http://www.lib.ru/FILOSOF<br>O'zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy veb sayti www.gov.uz |
| **6.** | Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 2024 yil "___" dagi -son bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| **7.** | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>A.Samadov – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti, Falsafa va milliy g'oya kafedrasi mudiri (DSc) professor |
| **8.** | **Taqrizchilar:**<br>A.Aymatov- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani (ichki)<br>R.Komilov – Samarqand davlat chet tillilar instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori (tashqi) |

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova _____

**Falsafa va milliy g'oya kafedra mudiri** **prof. A.Samadov**

**Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani** **prof. A.Q. Aymatov**

**SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor** **prof. A.Soleev**

**Samarqand davlat universiteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida o'tiladigan "FALSAFIY ANTROPOLOGIYA" fanidan tuzilgan fan dasturiga**

## TAQRIZ

Fan bo'yicha tuzilgan o'quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o'quv fani mazmunimng qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o'quv fanning maqsad va vazifalarini belglab bcrish o'quv (lasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amalyotida o'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan o'quv dasturlari ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keng bosqichda yuksakroq darajada takrorlash ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi o'quv dasturlarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi. Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Fan dasturi oliy ta' lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Falsafiy antropologiya" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi.

Dasturda "Falsafiy antropologiya" fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ulami bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga olgan.Yuqoridagilami hisobga olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va tavsiya etaman.

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani, (DSc)** **Aymatov A.Q.**

**Samarqand davlat universiteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida o'tiladigan "FALSAFIY ANTROPOLOGIYA" fanidan tuzilgan fan dasturiga**

## TAQRIZ

Fan bo'yicha tuzilgan o'quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o'quv fani mazmunimng qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o'quv fanning maqsad va vazifalarini belglab bcrish o'quv (lasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amalyotida o'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan o'quv dasturlari ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keng bosqichda yuksakroq darajada takrorlash ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi o'quv dasturlarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi. Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Fan dasturi oliy ta' lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Falsafiy antropologiya" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi.

Dasturda "Falsafiy antropologiya" fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ulami bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, kp'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga olgan.Yuqoridagilami hisobga olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va tavsiya etaman.

Samarqand davlat chet tillar instituti professor
v/b.R.Komilov

ɔt
ɔfessori v.b. (DSc) R.Komilov